

O‘ZBEK TILI TA’LIMY KORPUSINING AMALIY AHAMIYATI

Xoliyorova To‘lg‘anoy Ravshan qizi
TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ta’limiy korpusning amaliy ahamiyati, til korpuslaridan foydalanishning qulayliklari, Til korpusidan foydalanuvchi sohalar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar. Ta’limiy korpus, til korpuslari, ilmiy tadqiqot, elektron kontent, konkordans, konstruksiya, podkast, veb kvest,

Kirish. Hozirgi kunda o‘zbek tiliga e’tibor kundan kunga oshib bormoqda. Va bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan O‘zbek tilining Ta’limiy korpusi yaratilishi ham shu jumladan. Ta’limiy korpus – maktab darsliklari va o‘quv lug‘atlariga asoslangan til korpusi bo‘lib, o‘zbek tili Milliy korpusining xususiy (tarkibiy) turi hisoblanadi. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida yaratildi, 2021-yilning 23- aprelida dastlabki taqdimoti o‘tkazildi, hozirda uning bazasi boyitililmoqda va takomillashtirilmoqda.

Til korpuslari lug‘atlar yaratish, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirish, so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyani oshirishda asosiy ish qurol hisoblanadi. Ta’limiy korpusning yaratilishi turli sohada faoliyat yuritayotgan insonlar uchun qo‘l keladi, bundan tashqari ona tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan insonlar uchun ham asosiy manba.

Asosiy qism. Ta’limiy korpus - o‘zbek tilini davlat tili va ikkinchi til, shuningdek xorijiy til sifatida chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Ta’limiy korpusni tashkil etuvchi elektron kontent - audio, video, multimediyalar, talaffuz va imlo qoidalarni o‘rgatuvchi dasturlar, elektron o‘quv lug‘atlari foydalanuvchilarga o‘zbek tilini mustaqil holatda ham qulay o‘rganishga sharoit yaratadi. Amaldagi o‘quv dasturlari mazmunidan farqli ravishda mazkur kompleks o‘zbek tilini notanish vaziyatlarda ham qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Undan o‘zbek tilini o‘rganishni boshlovchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilar, talabalar keng jamoatchilik foydalanishi mumkin.

Til korpuslarining ahamiyatli jihatlaridan biri, muayyan shakldagi bir so‘zni, u bilan bog‘liq ma’lumotlarni topishimiz mumkin. Bir so‘zni turli manbalarda ishlatilish uslubi, janrlari, grammatik va semantik ma’nolari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lamiz. Til korpusidan foydalanishda bir qancha qulayliklar mavjud. Xususan so‘zshaklini tezkor qidiruv natijasi, Statistika axborot va qidiruv natijalarini foydalanuvchiga taqdim etishi, so‘zshakli bo‘yicha, korpus tarkibida mavjud bo‘lgan

matnlar tarkibidagi konkordanslarning berilishi, bundan tashqari korpusda nafaqat badiiy uslubdagi matnlar bundan tashqari publitsistik, rasmiy oʻgʻzaki matnlar ham mavjud. Albatta bularning barchasi foydalanuvchiga ham ishonchli manbalardan tezda maʼlumot olishiga koʻmak beradi.

Korpusdan foydalanuvchi sohalar, Qiyosiy tilshunoslikda foydalanish mumkin. Bunda parallel korpus asosida, ikki tilda berilgan matnni bir biriga qiyoslanadi. Oʻxshash va farqli jihatlarini oʻrganishda qoʻl keladi.

Til oʻrganishda. Misol uchun yangi tilni oʻrganmoqchi boʻlgan oʻquvchilar, korpus yordamida oʻsha tilda berilgan soʻzlarning maʼnosi, soʻzlarni turli matnlardada ishlatilish koʻlami haqida maʼlumotga ega boʻladi. Bu yangi tilni oʻrganish jarayoni birmuncha osonlashtiradi.

Tarjima sohasida. Boshqa bir tildagi matnni ekvivalenti bilan tanishish mumkin, yoki boshqa yildagi matnni tarjima qilish jarayonida ham qoʻl keladi. Bundan tashqari lugʻat tuzish sohasida ham korpusdan foydalaniladi.

Xulosa. Taʼlimiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni oʻrganishda birdek ahamiyatli. Tilni oʻrgatishda lugʻat boyligining kattaligini koʻrsata olish, soʻzning qoʻllanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini koʻrsatishda korpus juda qoʻl keladi. Til taʼlimi uchun muhim boʻlgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. Oʻqituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu boʻyicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi.

Nafaqat quvchilar balki, qituvchilar ham taʼlimiy korpusdan unumli foydalanishi mumkin. Dars mashgʻulotlari ishlab chiqishda, quvchilarga turli, ishonchli manbalardan topshiriqlar tuzishda, dars mashgʻulotlarini qiziqarli va mazmunli tkazishda qituvchiga qoʻl keladi. Taʼlimiy korpus quvchilarga taʼlim jarayonida yanada soʻz boyligini oshirishga, grammatik maʼlumotlarni mustahkamlashga, leksikografik maʼlumotlarni chuqur rganishga, yangi yangi manbalar bilan tanishishda, szlarning qllanish klami bilan tanishishda katta yordam beadi. Bugungi kunda barcha soha vakillari uchun korpus tezkor, ishonchli manba boʻlib xizmat qilib kelmoqda.

Til taʼlimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali elektron manbalari sifatida elektron lugʻat, oʻrganilayotgan tilda multimedia materiali, ixtisoslashtirilgan oʻquv resursi, elektron aloqa vositasi farqlanadi. Shunday vositalar sirasidan podkast, veb-kvest hamda taʼlimiy korpus ham oʻrin olishi mumkin. Buning uchun oʻzbek tili taʼlimiy korpusini tuzish, undan ona tili hamda oʻzbek tilini xorijiy til sifatida oʻqitishda foydalanishga erishish oʻzbek lingvodidaktikasini yangi pogʻonaga koʻtaradi; jahon taʼlim standartlari darajasiga olib chiqishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.ZAXAROV, B.MENGLIYEV, SH.XAMROYEVA KORPUS LINGVISTIKASI. O‘quv qo‘llanma.
2. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 84–87.
3. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
4. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
5. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojiaiy taqdirlari tasviri. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 1291–1298.
6. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA‘ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.
7. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 301–304.
8. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
9. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 80–83.
10. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
11. O‘rolova, M., & Sayfullayev, N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42)).
12. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
13. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
14. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.
15. <https://uzschoolcorpara.uz>
16. <https://youtu.be/ToLXvFuctks?si=cxwlsHkfckr7WSQh>
17. https://www.researchgate.net/publication/359629629_Ozbek_tilining_ta’limiy_korpusi_va_uning_imkoniyatlari
18. uzbekcorpus.uz
19. pureportal.spbu.ru